HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILIDA “I” FONEMASINING QISQA VA CHO‘ZIQ HOLDA QO‘LLANILISH O‘RINLARI

Tursunova Kamola Abduqodir qizi *Samarqand davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi assistenti

Yusupov Sardor Shodi o‘g‘li

Annotatsiya. *Mazkur maqolada hozirgi o‘zbek adabiy tilining fonetik tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan “i” fonemasining qisqa va cho‘ziq aytilish xususiyatlari, fonetik hodisasiga uchrasi, yuqori ko‘tarilishdagi tor unliligi, reduktiv o‘zgarishlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar. *Fonetika, tovush, reduksiya, singarmonizm, leksema, cho‘ziqlik va qisqalik, “i” tovushi.*

Abstract. *This article scientifically substantiates the characteristics of short and long pronunciation, phonetic phenomena, high-rising narrow vowel, and editorial changes of the phoneme “i”, which has a unique place in the phonetic system of the modern Uzbek literary language.*

Keywords. *Phonetics, sound, reduction, synharmonism, lexeme, length and brevity, “i” sound.*

Аннотация. *В данной статье научно обосновываются особенности краткого и долгого произношения, фонетические явления, восходящий узкий гласный звук и редукционные изменения фонемы «и», занимающей уникальное место в фонетической системе современного узбекского литературного языка.*

Ключевые слова. *Фонетика, звук, редуктирование, сингармонизм, лексема, длина и краткость, звук «и».*

O‘zbek tili fonetika sohasida unli fonemalarning turli xil variantlarga, ottenkalarga ega bo‘lish holatlari uchraydi. Nutqiy vaziyatlar bunday

variantlarning yuzaga chiqishi uchun sharoit yaratadi. Chunki til egalari umumiy til birliklaridan foydalansa-da, talaffuz jarayoni individual hodisadir. Masalan, “i” tovushi, avvalo, bir shaxsning o‘ziga xos talaffuzida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, so‘zlar tarkibida yondosh tovushlar ta’siriga ham beriladi. Masalan, “tushib” so‘zining birinchi bo‘g‘inidagi “u” ning ta’sirida “u” ga yaqin talaffuz qilinadi. Bilan, tilim, sira so‘zlari tarkibida bilinar-bilinmas aytiladi. Qiliq, qiziq kabi so‘zlar tarkibida esa, til orqa tovushi ta’sirida qisqa “i” tarzida talaffuz qilinadi. Bundan tashqari, uning talaffuzida so‘zlovchining qaysi shevaga mansubligi ham sezilib turadi. [1:44]

Real nutqda so‘zlar talaffuz qilinganda cho‘ziq va qisqa talaffuz qilinishi odatiy holdir. Tovush cho‘ziqligi - tebranishning oz yoki ko‘p vaqt davom etishi. Tovush cho‘ziqligi ikki xil bo‘ladi: a) fonologik cho‘ziqlik (birlamchi cho‘ziqlik). Bunday cho‘ziqlik, odatda, ma’no ajratish uchun xizmat qiladi. Masalan, turkman tilida “yilqi” ma’nosidagi “ot” so‘zi bilan “ism” ma’nosidagi “ot” so‘zining ma’nolari shu so‘zlar tarkibidagi “o” unlisining cho‘ziqlik darajasi bilan farqlanadi; ot (ad – “yilqi”), o:t (a:d – “ism”) kabi; b) fonetik cho‘ziqlik (ikkilamchi choziqlik) – sof fizik-akustik faktorga asoslangan (fonologik vazifa bajarmaydigan) cho‘ziqlik. Masalan, urg‘uli bo‘g‘indagi unli biroz cho‘ziladi, ammo u so‘z ma’nosini farqlash uchun xizmat qilmaydi. Shuningdek, imon so‘zi boshidagi “i” cho‘ziqroq talaffuz etilganidan, unda bir “y” orttiriladi yoki shahar, zahar so‘zlarida “h”ning tushib qolishi natijasida ikki “a” yonma-yon kelib, bir cho‘ziq “a” tarzida talaffuz qilinadi. (sha:ar, za:ar kabi), ammo bu holat so‘z ma’nolarini o‘zgartirmaydi. [2:26]

“i” unlisini talaffuz etganimizda og‘iz bo‘shlig‘i biroz ochilib, til o‘rtasi yuqori tanglayga tomon ko‘tariladi. Bu unli lablanmagan tovushlar sirasiga kiradi. Og‘izning ochilish darajasiga ko‘ra esa “i” yuqori tor unli hisoblanadi. Ushbu harf bilan, bilim, til, tilak, har xil, qism kabi so‘zlar tarkibida qisqa talaffuz etiladi va asliga muvofiq shaklida yoziladi. Biroq badiiy, ommaviy,

Lutfiy singari so‘zlarda mazkur tovush cho‘ziq aytiladi, imlo qoidalariga ko‘ra har doim “iy” birikmasi bilan ifodaladi. Singil, o‘rin, ko‘ngil, o‘g‘il, kabi so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda so‘z asosidagi “i” tushish hodisasiga uchraydi.

O‘zbek tili imlosining asosiy qoidalariga ko‘ra, bir qator so‘zlar morfologik tamoyil asosida yoziladi. Asliga muvofiq yozilganda qovun, tovush kabi so‘zlarning, shuningdek, chirmovuq leksemasining oxirgi bo‘g‘inida “i” tovushi eshitilsa-da, imloda asliga ko‘ra “u” harfi yoziladi. O‘zlashma so‘z imlosida direktor so‘zining urg‘usiz bo‘g‘inda “i” tovushi talaffuz qilinsa ham, qoidaga binoan, “o” harfi yoziladi. “i” tovushi bilan tugaydigan fe’llarga “v”, “q” yoki “qi” qo‘shimchalari qo‘shilganda “i” tovushi “u” ga aylanadi. E’tiborlisi shundaki, ushbu o‘zgarish yozuvda ham to‘liq aks etadi. Bunga o‘quv va sovuq so‘zlarini misol qilib keltirish mumkin. “i” tovushi bilan tugagan sonlarga “ov” qo‘shimchasi qo‘shilganda son oxiridagi “i” tovushi ham talaffuzdan, ham yozuvdan butunlay tushib qoladi. Buni ikkov so‘zi misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Tor-kenglik belgisi jihatidan ovoz tovushlar *i – u – o – e – â – a* qatorini tashkil qiladi; bu qatorda *i* tovushi - eng tor, *a* tovushi - eng keng tovush, oradagi tovushlar tor holatdan keng holatga bosqichma-bosqich o‘tib boradi. Bunday bosqichma-bosqich farqlanish adabiyotlarda *e, o* tovushlariga nisbatan *e* o‘rta-keng, *o* o‘rta-tor deb ta’kidlanadi. [3:14]

So‘zning birinchi bo‘g‘inida “o” tovushi keladigan ayrim leksemalarning keyingi bo‘g‘inda “u” emas “i” tovushi talaffuz qilinadi. Misol uchun, ko‘ngil, o‘tin. Agar leksemaning oldingi bo‘g‘inida “u” tovushi kelsa, keying yopiq bo‘g‘inda ham “i” emas “u” aytiladi. Ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda urg‘uli keyin keluvchi bo‘ginda “i” aytiladi. Bu holat, ayniqsa, o‘zlashma so‘zlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘zbek tilidagi til, tish, bil, sir, bilan, biroq, sira, tilak, gilam, gilos, viqor, mir, pir, bir, xir bilim, kirish, sit, bit, kin so‘zlarida “i” unlisining qisqa ko‘rinishi ishlatilsa, chiy, kiy, ming, hid, hind,

his, nozik, alik, rostlik, iymon, hisob, hikoya, hijron, ring, biy, qiy, hilol, hissa, hisobot, xilqat so‘zlarida “i” unlisining cho‘ziq holatlari uchraydi.

Qo‘sh undoshlar orasida qisqa “i” tovushi qo‘shilib talaffuz qilinadi. Masalan, mat(i)n, jis(i)m. Qayir, ayir fe’llariga nisbatan shakl yasovchi “il” qo‘shimchasi qo‘shilganda ikkinchi bo‘g‘indagi “i” unlisi talaffuzda tushub qoladi va shunday yoziladi. “i” harfi old qator, tor unli ifodalash uchun qo‘llanadi. “i” unlisining og‘zaki nutqda til oldi va til orqa variantlari. Ushbu unli, bilim kabi so‘zlarda old qator unliyi kabi aytiladi, chuqur til orqa undoshlaridan keyin kelganda esa orqa qator unlisi kabi talaffuz qilinadi.

Og‘iz bo‘shlig‘ining akustik imkoniyatlaridan kelib chiqilsa, “i” unlisi eng yuqori intensivlikka ega va eng kuchli eshitiladigan tovushdir. “a” unlisini talaffuz qilishda og‘iz bo‘shlig‘i “i” ga nisbatan kengroq ochiladi va havo oqimining chiqish kuchi pasayadi. Shunga qaramay, nutq jarayonida “a” tovushini qo‘llash imkoniyati “i” tovushiga nisbatan ancha qulay. Shunga ko‘ra, odatdagi nutq prosessida “a” tovushi “i” tovushiga nisbatan ko‘proq kuch bilan qo‘llanadi. Lekin nutq prossesida tovushlar maksimal shovqin asosida emas balki tabiy nutq zarurat darajasida ifodalandi. Chunki maksimal shovqin holatida nutq tovushlari asosida xususiyatini yo‘qotadi. Bu jihatdan qaraganda ham “a” tovushining talaffuzi “i”ga nisbatan ancha qulay. “i” unlisi singari monizmni yo‘qota oladigan shevalarda esa, turli fonetik sharoitlardagina uchraydi. Bir bo‘g‘inli leksemalarda hamda ikki bo‘g‘inli leksemalarning birinchi bo‘g‘inidagi undoshlar oldida kelgan tor “i” unli sonor undosh ta’sirida reduksiyaga uchraydi.

Xulosa qilib aytganda o‘zbek tili fonetik tizimida “i” boshqa unlilarga nisbatan o‘zgaruchi tabiati bilan ajralib turadi. Maqolada ko‘rib chiqilganidek, uning qisqa va cho‘ziq variantlarda namoyon bo‘lishi, fonetik o‘zgarishlarga uchrashi hamda tilimizning artikulatsion imkoniyatlari naqadar kengligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Nurmonov, A.Sobirov. Hozirgi ozbek adabiy tili. Toshkent. Ilm-ziyo. 2013. 592 b.
2. H.Jamolxonov. Hozirgi ozbek adabiy tili. Toshkent. Talqin. 2005. 272 b.
3. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. Universitet. 2006. 476 b.
4. X.Muhiddinova va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. O‘qituvchi. 2006. 208 b.